

---

## Hamkorlik aloqalarining yangi ufqlari

Keyingi yillarda Prezidentimizning amalga oshirayotgan oqilona siyosati natijasida Rishton tumani va xorijiy mamlakatlar o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. Bu, o'z navbatida hamkorlikni yanada jonlantirishga turtki bo'lmoqda. Savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Hamkorlikning yangi sahifasi xalq manfaatlarini yo'lidagi yangi maqsadlar va istiqbollari bilan to'lgan. Ochiq, samimiy muloqotlar o'zaro hamkorlikni kuchaytirish uchun ham mustahkam poydevor qo'yimoqda. Bugungi kunda Rishton tumani imidjini ilgari surish, Rishton kulolchilik brendini xorijda ommalashtirish va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish borasida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, shu kunga qadar Ozarayjonning Ismoil, Yaponiyaning Maydzuru, Belarusiyaning Kruglyanski, Italiyaning Deruta, Turkiyaning Iznik va Kutaxya shaharlari bilan Rishton tumani o'rtasida birodarlashgan shaharlari sifatida memorandum imzolangan edi. Ushbu mamlakatlarga qilingan safarlar va ularning mamlakatimizga tashriflari davomidagi muloqotlar ochiqlik, o'zaro ishonch, anglashuv va do'stona ruhda o'tdi. Imzolangan memorandumlarga ko'ra, tumanimiz va xorijiy mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish, boshqa sohalaridagi aloqalar ko'lamini tobora kengaytirib borish masalalari diqqat-markazida bo'ldi. Ushbu hamkorliklar natijasida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, kulolilikni rivojlantirish dorasidagi loyihalar o'zini oqlamoqda. Rishtonlik usta kulollar mahsuloti dunyo bozorini egallamoqda. Aytish joizki, hozirga qadar Respublika bo'yicha yagona bo'lgan dunyoning 5 ta davlatining oltita shahri bilan birodarlashgan Rishton tumani bu bilan to'xtab qolmoqchi emas. Ayni kunlarda Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Polsha, Fransiya, Litva, Gruziya, Xitoy, Janubiy Koreya va Avstraliya mamlakatlari shaharlari bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida muzokaralar davom etmoqda.

2024-02-23 10:45:50